

SO'FI OLLOYORNING „SABOT UL-OJIZIN “ ASARIDA
MARIFATPARVARLIK
RUHI VA AXLOQIY-IRFONIY QADRIYATLAR MAVZUSI

Sultonaliyeva Otikaxon

Farxod qizi

Farg'ona davlat universiteti

Filologiya fakulteti

3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada So'fi Olloyorning „Sabot ul-ojizin“ asaridagi axloqiy qadriyatlar, qarashlar hamda tasavvufning asosiy g'oyalari haqida qisqacha yoritilib berilgan*

Kalit so'zlar: *qadriyatlar, tasavvuf, axloq, irfoniylar, qarashlar, komil inson, nafs, kamolot.*

XVII-XVIII asrlar o'zbek ma'naviy hayotida yirik tasavvufiy va ma'rifiy siymo sifatida tanilgan So'fi Olloyor (1644-1721) o'zbek adabiyotining ma'rifatparvarlik yo'nalishida alohida o'rin egallaydi, uning eng mashhur asari "Sabot ul-ojizin" esa axloqiy va irfoniylar qarashlari, islomiy aqidalari, ma'naviy kamolot masalalarini sodda va ravon tilda bayon qilgan yirik pandnoma sifatida qadrlanadi. Asarning qachon yozilganligi haqida aniq ma'lumotlar mavjud emas. Muallif uni avvalo xalq ommasiga, savodi past, ammo ma'naviy bilimga tashna bo'lgan insonlarga bag'ishlagan, shu bois unda xalqona ifoda, sodda til, hayotiy misollar va hikmatli bayon ustuvor o'rin tutadi, muallif esa ilmning fazilatini tushuntirishni, odob-axloq me'yorlarini mustahkamlashni, tasavvufiy tarbiyaga chorlashni va jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashishni maqsad qilgan.

"Sabot ul-ojizin" an'anaviy pandnoma ruhida yozilgan bo'lsa-da, undagi mavzular o'z davri uchun ham, keyingi asrlar uchun ham nihoyatda dolzarb bo'lib, asar aruzning ramal bahrida bitilgan, umumiy hajmi ikki mingdan ortiq misrani tashkil etadi va

mazmunida aqidaviy masalalar, ota-ona hurmati, ilmning fazilati, nafs tarbiyasi, shariat ahkomlari, yaxshi xulq, dunyo va oxirat munosabati, sabr va tavba kabi mavzular bir zanjiming halqalari singari o'zaro bog'liq tarzda izchil davom etib boradi.

Asarda ilm:

- insonni jaholatdan qutqaruvchi nur,
- Allohni tanishga eltuvchi yo'l,
- jamiyatda esa eng sharaflı mavqe beruvchi qudrat sifatida talqin qilinadi

Ilm nafaqat diniy, balki axloqiy-ma'rifiy o'sishning ham poydevori deb e'tirof etiladi, ilmlı insonning qadri hamisha yuqori bo'lishi ta'kidlanadi. Ota-onaga hurmat esa ibodatga tenglashtiriladi, ularni ranjitish eng katta gunohlar qatorida eslatiladi, ota-onaga xizmat qilish farzandning eng ulug' burchi ekanligi aytiladi va bu fikrlar sodda, ammo chuqur mazmunli bayon orqali mustahkamlanadi.

Asarda tasavvufning asosiy g'oyalari dan biri-nafs bilan kurash alohida o'rin tutadi, nafs insonning ichki dushmani, uni jilovlash esa sabr, riyozat, zikr va tavakkul orqali amalga oshishi mumkinligi. ta'kidlanadi, bu qarashlar Yassaviy va Naqshbandiya maktabi g'oyalari bilan uyg'unlashib ketadi. Yaxshi xulq inson komilligining mezoni sifatida ko'rsatiladi, halollik, rostgo'ylik, adolat, saxovat, mehnatsevarlik kabi fazilatlar insonni yuksaltiruvchi xislatlar sifatida sanaladi, bunday inson jamiyatda ham e'zoz topadi, ham ma'naviy jihatdan poklanadi, deya qayd etiladi. Dunyo hayoti esa o'tkinchi, aldovlarga boy maydon sifatida talqin qilinadi, ammo undan butkul yuz o'g'irish emas, balki halol mehnat bilan yashab, aldovlarga berilmay, oxirat uchun tayyorgarlik ko'rib yashash muhim ekani aytiladi

"Sabot ul-ojizin" o'zbek ma'naviyati tarixida nihoyatda katta o'rin tutadi, XIX-XX asrlarda madrasalarda axloqiy-ma'rifiy darslik sifatida keng o'qitilgan, qo'lyozma va toshbosma nusxalari Turkiston hududining deyarli barcha madaniy markazlarida tarqalgan, asardagi ko'plab misralar xalq maqollari singari og'zaki nutqqa singib

ketgan. Jadid ma'rifatchilari Fitrat, Avloniy, Munavvarqori kabi ziyolilar ham So'fi Olloyor merosini xalqni uyg'otishga, ma'naviyatni yuksaltirishga xizmat qiluvchi bebaho manba sifatida e'tirof etganlar. Bugungi kunda ham asar axloqiy tarbiya, ruhiy kamolot, ma'naviy poklik, ilmga muhabbat kabi g'oyalar bilan dolzarbligini yo'qotmagan.

Badiiy jihatdan asar xalqchilligi, ravon aruz ohangi, hikmatli bayoni, sodda va chuqur mazmunni. o'zida mujassam etgani bilan o'zbek mumtoz adabiyotining durdonalaridan biri bo'lib qolmoqda Xulosa qilib aytganda, "Sabot ul-ojizin bir necha asrlar davomida xalq ma'naviy hayotini yoritgan, o'qilgan, yodlangan, tarbiyaviy manba sifatida qo'llanilgan asar bo'lib, uning ma'naviy-ma'rifiy qimmati bugun ham o'z kuchida turibdi, So'fi Olloyor esa o'zbek ma'naviyatida ma'rifatparvarlik ruhini eng sodda va eng teran shaklda ifoda eta olgan ulug' mutafakkir sifatida baholanadi.

Mazkur asarni o'qir ekanmiz, sof islomiy e'tiqod, komil inson axloqi, ilohiy muhabbat, yoshlar tarbiyasi kabi mavzularga duch kelamiz. Unda Allohning ma'rifati, tavhidi, sifatlari, iymon, farishtalar, qabrazobi, qiyomat kuni, Payg'ambar shafolat, umrning foniyligi haqida xabar beradi.

Asar muqaddimasida qayd qilinishicha, muallifning muxlis va do'stu yaqinlari turkiy tilde kitob yozishini iltimos qilishadi, bunga javoban fors tilida yozilgan „Maslak ul-muttaqin“ asarini bir muncha qisqartirib, „Sabot ul-ojizin“ deb ataydi. Aytib o'tganimizdek, nafs tarbiyasi hamda ko'plab axloqiy jiyatlarni yoritib bergan.

Riyozat bandig'a berkit oyog'in,
Ko'tarma boshidin taqvo tuyog'in.

Taqvo tushunchasi o'zining asos e'tibori bilan yuksak maqomni ifodalaydi. Bu maqomni topgan inson qadriyati shu qadar ko'tariladiki, oyog'I zamindan

uzilmasdan, Nazari samolarga yetadi, yerda turib, Haqqa bog'lanadi. Shuning uchun ham Qur'oni Karimning avvalgi suralari, avvalgi oyatlaridayoq tavqvo haqida so'z boradi, bu ulug' kitobning katta taqvo egalarini to'g'ri yo'lga boshlashi eslatiladi.

Asarda har bir masala o'z javobini topadi. Dard kelganda shukr qilish, sabrli bo'lish haqida, Qazoga rozi va balo'g'a sabrli bo'lmoqning bayoni keltirib o'tiladi:

Rizo ayvonida topqon kishi jo,
Demas vo bobi ofat bo'lsa ham vo.
Agar mag'zi diling ayrilsa to po'st,
Yig'ini yig' agar chin qulsan, ey do'st.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, bu asardagi tasavvufiy ma'nolar barchamiz uchun dastur ul-amal bo'lib xizmat qiladi. Bir bosqichda asardagi ma'no anglanmasligi mumkin, ammo yuqori diniy bilim, tasavvufga oid tushunchalar mohiyatini anglagan holda asar matniy xususiyatlariga to'xtalish, uning mohiyatini to'la-to'kis tushunishimiz uchun yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rahmonqul Orzibekov. „O'zbek adabiyoti tarixi“
2. So'fi Olloyor Risolayi aziza „Sabot ul-ojizin“.